



**TIKUV TRIKOTAJ SANOATIDA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALAR**
Shokirova Xolinsa Xakimovna

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-yanvar 2024 yil
Ma'qullandi: 18-yanvar 2024 yil
Nashr qilindi: 23-yanvar 2024 yil

KEY WORDS

*innovatsiya, korxonalar faoliyati
samaradorligi, innovatsion faoliyat.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada to'qimachilik sanoatini innovatsion rivojlantirishning ahamiyati, dolzarb tadqiqot sifatida zamonaviy sharoitda innovatsion yo'ldagi muammolar, shuningdek korxonalarni innovatsion rivojlantirishning nazariy asoslari ko'rib chiqilgan.

Hozirgi kunda innovatsion jarayonlar to'qimachilik sanoatini ichki va tashqi bozorlarda strategik muvaffaqiyati hamda barqaror rivojlanishini belgilovchi muhim omilga aylanib bormoqda. To'qimachilik sanoatini innovatsion rivojlantirish korxonani investitsion loyihasining moddiy, texnik va moliyaviy jihatdan asoslantirish, tashkil etilayotgan ob'ekt faoliyatini boshqarish, shu jumladan o'zgaruvchan tashqi sharoitlarga moslashish investor tomonidan qo'yilgan maqsadlarga erishish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. To'qimachilik sanoatini innovatsion rivojlantirishning o'ziga xos xususiyati ishlab chiqarishga ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini keng joriy etish orqali tarmoq korxonalarining faoliyat yo'nalishiga turli-tuman yangiliklar olib kirish, texnik va texnologik rivojlantirish, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish, boshqaruv sifatini yaxshilash, korxona samaradorligini oshirishga ijobiy ta'siri bilan tavsiflanadi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Bugungi kunda, dunyoda korxonalarning iqtisodiy rivojlanishi ilm-fan yutuqlari muvaffaqiyatini asosiy omili sifatida texnologik innovatsiyalarning ta'siri tobora ortib borayotganligidan, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning takomillashib borayotganligidan tabiiy xom-ashyo resurslariga, asbob- uskunalarga, ishchi kuchiga qo'llanishi orqali erishiladi. Korxonalarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish tezligi iqtisodiy va texnologik raqobat muhitini kuchaytiradi. Dunyo tajribasi shundan dalolat beradiki, korxonalarning o'z ishlab chiqarishlariga doimiy ravishda innovatsiyalarni joriy etishi yangi mahsulotlar va xizmatlar paydo bo'lishini, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardosh bo'lishini ta'minlaydi.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanish davri qishloq xo'jaligi davri, sanoat davri kabi ma'lum bir bosqichlarni bosib o'tib, yangi global iqtisodiy tizim sanoatni rivojlantirish davrida ilm-fan yutuqlari bilan uyg'unlashib bormoqda.

Shu bilan birgalikda, raqobat muhitida kapital resurslarga yoki moddiy boyliklarga ega bo'lish uchun emas, balki innovatsiyalarni ishlab chiqish va tadbqiq qilish ketmoqda (1-

jadval).

Iste'mol bozorida tovarlar assortimentini ko'payishi, yangi turdagi tovarlarni paydo bo'lishi yoki takomillashishi ilm-fan yutuqlari, innovatsion hamda yuqori texnologiyalar bilan bog'liq.

1-jadval

Iqtisodiy tizimlarning o'ziga xos xususiyatlari [4]

Davr tasnifi		Davrlar	
		Sanoat davri (XX asr o'rtalari)	Innovatsiya davri (XX asr oxiri XXI asr boshi)
Strategik omillar		Tajriba	Bilimlar
Raqobatdagi ustunliklar		Texnologiya	Texnologik va boshqarishdagi innovatsiyalar
Ustunlik tomoni	Kapital	Jismonan	Intellectual
	Aktivlar	Moddiy	Nomoddiy

To'qimachilik sanoatida innovatsion ishlanmalarni tadbiq qilish natijasida sintetik xom-ashyo va materiallardan tola, buyalgan tola, aralash matolar, tayyor poliefir tola va aralash mato, nitron tola va kalava, maxsus paraarmid matolar, trikotaj mato (42 % viskoza, 58 % ipak), djinsi matolar, ko'ylak uchun ip gazlama, bambuk kalavadan ayollar kiyimlari, ip (90 paxta, 10 % laykra), bolalar uchun takliklar, noto'qima matodan yoqa, yeng va tibbiyot xalatlari, avtomobil o'rindiqlari uchun g'ilof, tugmalar, akril iplar, texnik maqsadda ishlatiladigan noto'qima matodan filtr va boshqa yangi turdagi to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Innovatsiyalarni tadbiq etish va samarali boshqarish bilan birgalikda yangi investitsiyalarni jalb qilish, avvalo zamonaviy asbob-uskunalar va texnologiyalarni doimiy yangilanib borishi respublikaning to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

To'qimachilik sanoatiga 20 yillik davr mobaynida 180 dan ortiq investitsion loyihalar doirasida 2,5 milliard dollardan oshiq xorijiy investitsiyalar jalb etilgan. Jalb etilgan xorijiy investitsiyalarda Koreya Respublikasi, Xitoy, Rossiya, Hindiston, Buyuk Britaniya, Germaniya, Singapur, Shveysariya, Turkiya kabi davlatlarning ulushi yuqoridir. Mavjud texnologik asbob-uskunalarining 89,3foizi modernizatsiya, texnik va texnologiya jihatdan yangilangan.

Respublikada to'qimachilik sanoati korxonalariga innovatsiyalarni keng joriy etish innovatsion va ilmiy-texnik rivojlantirish jarayonlarini rag'batlantirish, hududlar va tarmoqlar darajasida innovatsion rivojlanish va innovatsion faollik kompleks dasturlarini amalga oshirish, innovatsion faol tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etish tarmoq korxonalarini raqobatdoshligini oshirishda juda katta ahamiyatga ega.

Innovatsion faoliyat ilmiy tadqiqotlar yoki boshqa bir ilmiy-texnik ishlanmalarni bozorda raqobatdoshlikni ta'minlaydigan yangi yoki takomillashgan mahsulot, amalda qo'llaniladigan yangi yoki takomillashgan texnologiyalarni tadbiq etish jarayonidir. Jumladan:

“aqli to'qimachilik” texnologiyalariga asoslangan innovatsion to'qimachilik materiallari ishlab chiqarishning to'liq zanjiri yaratiladi;

to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini turli xil innovatsion texnologiyalarni (3D-bosma, avtomatlashtirilgan loyihalash (CAD), gazlama bo'ylab raqamli bosma va boshqalar)

tadbiq etish asosida rivojlantiriladi;

innovatsion jarayonlarni va yangi ilmiy ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash to'qimachilik korxonalariga doimiy "nou-xau"larni joriy etishni ta'minlaydi.

XULOSA VA MUNOZARA

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, to'qimachilik tarmog'i va ilm-fanni rivojlantirish, zarur me'yoriy-huquqiy hujjatlarni, bojxona-ta'rif siyosatini rivojlantirish mahsulot sifatini yaxshilash va ichki bozorda korxonalarning barqarorligini oshirishga yordam beradi. Investitsiyalarni jalb qilish, ilmiy va ishlab chiqarish salohiyatini yanada rivojlantirish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, tarmoq korxonalarning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari portali. (elektron resurs) <https://www.lex.uz/>.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti ma'lumotlari. (elektron resurs) <https://www.stat.uz/>.
3. Jahon banki indikator ko'rsatkichlari, WDI, (elektron resurs) <https://datacatalog.worldbank.org/>
4. Sh.R.Xamdamiyov, TDIU qoshidagi ITM, Iqtisodiy tahlil jurnali, 1 (241) (2020)

INNOVATIVE
ACADEMY